III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2024- yil yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 15 064,9 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 103,1 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 14 624,1 mlrd. so‘mni (103,7 %), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 325,9 mlrd. so‘mni (102,8 %), baliqchilik xo‘jaliklarida 114,9 mlrd. so‘mni (58,3 %) tashkil etdi.

Navoiy viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Navoiy viloyatining qishloq, o‘rmonva baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – **103,7 %**

O‘rmon xo‘jaligi **102,8 %**

Baliqchilik xo‘jaligi **58,3 %**

2024– yilning yanvar – sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,1 foiz, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 103,7 foiz, o‘rmon xo‘jaligi – 102,8 foiz, baliqchilik xo‘jaligi – 58,3 foiz ni tashkil qildi.

Navoiy viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da



2024- yilning yanvar- sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,1 foizi - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,2 foizi - o‘rmon xo‘jaligi, 0,7 foizi - baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, *mlrd. so‘m*

	Jami (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Aholi jon boshiga (ming so‘mda)*	*Jami qishloq xo‘jaligida kichik biznes ulushi, % da*
Jami	**15 064,9**	**103,1**	**13 914,7**	**98,8**
Navoiy sh.	64,6	113,5	395,6	99,6
Zarafshon sh.	64,8	107,8	726,4	100,0
G‘ozg‘on sh.	85,2	102,2	9 179,1	86,7
Karmana t.	2 012,6	104,6	14 388,6	99,2
Konimex t.	835,4	106,0	22 381,4	88,3
Qiziltepa t.	2 886,1	100,2	17 720,9	99,9
Navbahor t.	2 400,5	101,5	19 747,4	99,9
Nurota t.	1 439,8	104,1	15 995,7	98,7
Tomdi t.	444,8	103,8	28 829,7	99,9
Uchquduq t.	331,9	101,9	8 421,3	100,0
Xatirchi t.	4 499,2	104,2	20 980,8	99,3

2024- yil yanvar- sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmida kichik biznes ulushi, % da



2024 yil yanvar- sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Dehqonchilik

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4 649,9 mlrd. so‘mni yoki 2023- yil yanvar-sentabriga nisbatan 100,3 foizni tashkil etdi.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 32,1 foizga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Donli ekinlar

Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 242,4 ming tonna don (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 5,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Don yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 86,1 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Navoiy viloyati bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



Kartoshka

Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 79,0 ming tonna kartoshka (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 3,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 83,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Navoiy viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



Sabzavotlar

Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 230,6 ming tonna sabzavotlar (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 6,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 76,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaligi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Navoiy viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



Poliz ekinlari

Hajmi, tonna.



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 65,5 ming tonna poliz ekinlari (2023- yilning yanvar- sentabrga nisbatan 3,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Poliz ekinlarini yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 56,1% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Navoiy viloyati bo‘yicha poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna



Meva va rezavorlar

Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 91,1 ming tonna meva va rezavorlar (2023- yilning yanvar- sentabrga nisbatan 5,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 57,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Navoiy viloyati bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



Uzum

Hajmi, tonna.



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 72,3 ming tonna uzum (2023- yilning yanvar- sentabrga nisbatan 4,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 55,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Navoiy viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



Chorvachilik

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 9 854,9 mlrd. so‘mni yoki 2023- yil yanvar- sentabriga nisbatan 105,3 foizni, yetishtirilgan qish loq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlariningulushi 67,9 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish

Go‘sht (tirik vaznda)

Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 148,6 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 5,0 % ko‘p) yetishtirildi.

Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 86,8 foiz dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.

Hududlar bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



Sut

Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 404,7 ming tonna sut (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 5,4 % ko‘p) yetishtirildi.

Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 90,9 foiz dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Navoiy viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, tonna



Tuxum

Hajmi, mln. dona



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 359,3 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 13,3 % ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish

ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 64,1 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Navoiy viloyati bo‘yicha
tuxum yetishtirish hajmi, ming dona



Baliq ovlash

Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 5,0 ming tonna (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 57,4 %) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 55,9 foiz qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.

Navoiy viloyati bo‘yicha
ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorvachilik. 2024- yil 1- oktabr holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 1,6 foizga (jami 531,9 ming boshni tashkil qildi), qo‘y va echkilar 2,6 foizga (2 574,0 ming bosh), otlar 3,4 foizga (24 199 bosh), parrandalar 5,6 foizga (4,0 mln bosh) ko‘paydi.

2024- yil 1- oktabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	*o‘sish sur‘ati, % da*
Yirik shoxli qoramol	**531,9**	**101,6**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	49,9	105,6
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	466,2	100,9
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,8	111,1
ulardan sigirlar	**215,0**	**101,7**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	17,1	107,1
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	193,5	100,9
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,4	120,2
Qo‘y va echkilar	**2 574,0**	**102,6**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	706,2	103,5
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	1 461,6	101,0
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	406,2	107,0
Otlar (bosh)	**24 199**	**103,4**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	9 858	103,4
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	12 130	100,1
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 211	126,1
Parrandalar	**3 964,5**	**105,6**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	475,9	105,6
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	2 128,2	101,4
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 360,4	113,2

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 87,7 foizni, fermer xo‘jaliklarida esa 9,4 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 90,0 va 7,9 foizni, qo‘y va echkilar 56,8 va 27,4 foizni, otlar 50,1 va 40,7 foizni, parrandalar 53,7 va 12,0 foizni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 148,6 ming tonna go‘sht (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,0 foizga ko‘p), qariyib 404,7 ming tonna sut (5,4 foizga ko‘p), 359,3 mln. dona tuxum (13,1 foizga ko‘p), 310,0 ming dona qorako‘l teri (3,2 foiz ko‘p) , 5,0 ming tonna baliq (57,4 foiz) ovlandi.

2024-yil 1-oktabr holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Fermer xo‘jaliklari		*Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari*		*Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar*	
	ming bosh	*o‘sish sur‘ati, % da*	*ming bosh*	*o‘sish sur‘ati, % da*	*ming bosh*	*o‘sish sur‘ati, % da*
Yirik shoxli qoramollar	49,9	105,6	466,2	100,9	15,8	111,1
Sigirlar	17,1	107,1	193,5	100,9	4,4	120,2
Qo‘ylar va echkilar	706,2	103,5	1 461,6	101,0	406,2	107,0
Otlar boshda	9 858	103,4	12 130	100,1	2 211	126,1
Parrandalar	475,9	105,6	2 128,2	101,4	1 360,4	113,2

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari

	miqdori	*o‘sish sur‘ati, % da*
Go‘sht (tirik vaznda), ming tn.	**148,6**	**105,0**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	10,4	123,4
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	129,0	104,0
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,2	102,1
Sut, ming tn.	**404,7**	**105,4**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	29,3	111,8
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	367,7	104,5
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,7	126,6
Tuxum, mln. dona	**359,3**	**113,1**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	43,7	111,6
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	230,3	103,5
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	85,3	152,4
Qorako‘l teri, ming dona	**310,0**	**103,2**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	46,3	109,7
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	225,3	101,2
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	38,4	107,9
Ovlangan baliq, tonna	**4 950,5**	**57,4**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	1 689,5	109,0
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	495,4	106,1
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 765,6	41,8

2024- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)



shu jumladan: sigirlar (ming bosh)



Qo‘ylar va echkilar, ming bosh



Otlar, bosh



Parrandalar, ming bosh



Go‘sht, ming tonna



Sut, ming tonna



Tuxum, mln. dona



Qorako‘l teri, ming dona



2024- yil yanvar- sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) yetishtirishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht yetishtirish umumiy hajmida ularning ulushi 93,8 foizni, sut yetishtirishda 98,1 foizni, tuxum yetishtirishda 76,3 foizni tashkil etdi.

Fermer xo‘jaliklari. 2024- yil yanvar- sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 2 827,8 mlrd. so‘mni yoki 2023-yil yanvar-sentabriga nisbatan 101,5 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 19,5 foizni tashkil etdi.

2024- yil 1- oktabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 49,9 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 17,1 ming bosh sigir, 706,2 ming bosh qo‘y va echkilar, 9 858 bosh ot, 475,9 ming bosh parrandalar mavjud.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

	Yanvar- sentabr				*O‘sish sur‘ati, % da*
	2023- yil		*2024- yil*		
	tonna	*umumiy hajmidagi ulushi, % da*	*tonna*	*umumiy hajmidagi ulushi, % da*	
Don	200 449	87,2	208 800	86,1	104,2
Kartoshka	11 197	14,7	12 785	16,2	114,2
Sabzavot	38 158	17,6	43 330	18,8	113,6
Poliz	26 409	41,8	28 221	43,1	106,9
Meva	32 423	37,5	36 181	39,7	111,6
Uzum	22 362	32,4	23 899	33,1	106,9
Paxta	48 508	97,2	15 577	98,0	32,1
Go‘sht, tirik vaznda	8 428	6,0	10 398	7,0	123,4
Sut	26 245	6,8	29 332	7,2	111,8

davomi

	Yanvar- sentabr				O‘sish sur‘ati, % da
	2023- yil		2024- yil		
	tonna	umumiy hajmidagi ulushi, % da	tonna	umumiy hajmidagi ulushi, % da	
Tuxum, ming dona	39 191	12,3	43 727	12,2	111,6
Qirqib olingan jun	791,0	18,8	867,0	20,1	109,6
Qorako‘l teri, dona	42 210	14,1	46 316	14,9	109,7
Pilla	604,8	55,5	774,5	60,9	128,1
Olingan asal	95,5	9,5	102,8	10,0	107,6
Ovlangan baliq	1 549,5	18,0	1 689,5	34,1	109,0

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi.

O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yig‘ilgan yalpi hosili qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida asosiy va takroriy, bog‘larning qator oralaridagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yig‘ib olingan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Tomorqa xo‘jaligi - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyekti.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

Qorako‘l teri yetishtirish – uch kunligida so‘yilgan qorako‘l zotli qo‘zilarning terilarini o‘z ichiga oladi, bunda asosiy mahsulot qorako‘l teri hisoblanadi, olingan go‘sht esa so‘yish uchun yetishtirish hajmiga qo‘shilmaydi;

Asal yetishtirish – asalarilar tomonidan yig‘ilgan, ham uyalardan chiqarib olingan, ham asalarilarga qishki-bahorgi davrlarda ozuqa uchun qoldirilgan asal miqdorini o‘z ichiga oladi;

Baliqchilik mahsuloti – ovlangan baliq mahsulotlari miqdori bilan aniqlanadi.